



TILSHUNOSLIKDA MILLIY XOS SO'ZLAR, REALIYALARNING AHAMIYATI VA TARJIMADA AKS ETISHI

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, Ingliz filologiyasi o'qitish metodikasi
va tarjimashunoslik fakulteti 3-kurs talabasi

E-mail: gulomovamuxlisa@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7854635>

ARTICLE INFO

Received: 14th April 2023

Accepted: 21th April 2023

Online: 22th April 2023

KEY WORDS

So'z, realialar, leksema,
lingvistika, kompetensiya,
etnografik, neologism.

ABSTRACT

Mazkur maqola orqali so'zlar, realiyalar hamda ularning turlari to'g'risida kengroq ma'lumotga ega bo'lasiz. Shuningdek, ushbu maqola tarjimada realiyalarning ahamiyati, ularni xorijiy tildan tarjima qilish usullari va tarjima jarayonida mutaxassis yuzlashadigan muammoli holatlar haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

KIRISH

So'z — tilning narsa-hodisalar, jarayonlar va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim strukturma'noviy birligi; o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borlikdagi narsalar haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatni ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda

qo'llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va

vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. **Realia** so'zi esa o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab „haqiqiy narsalar“ degan ma'noda, ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda mavjud narsalarni anglatadi. Realialarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir. Realiani chuqur o'rganishni birinchi bo'lib amalga oshirgan bolgar tarjimonlari Vlahov va Florin so'zning zamonaviy ma'nosini yaratdilar. Ular shuni ko'rsatadiki, realiya milliy ohangga ega bo'lganligi sababli, ular ko'pincha tarjima uchun qiyinchilik tug'diradi.(1) Shuningdek, realiani terminologiya bilan chalkashtirib yubormaslik kerak: terminologiya - ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlatiladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdagi matnlarda qo'llaniladi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realiani yaxshi ko'radi.

REALIYA TURLARI VA ULARNI TARJIMADAGI MUAMMOLARI

“Realia” so'zi lotincha “moddiy” degan tushunchaga teng keladi. Lingvistik atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: “Borliqdagi ashyoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurulishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik” (2)

Realiyalar milliy, mahalliy va mikrolokal, xalqaro va mintaqaviy bo'ladi.



V.S. Vinogradovning so'zlariga ko'ra asosiy ma'lumotlarning mazmuni, birinchi navbatda, milliy hamjamiyatning tarixi va davlat tuzilishining o'ziga xos faktlarini, geografik muhitning o'ziga xos xususiyatlarini, o'tmish va hozirgi moddiy madaniyatning o'ziga xos ob'ektlarini, etnografik va folklori qamrab oladi. Realialarni aks ettiruvchi tushunchalar milliy xususiyatga ega bo'lib, ekvivalent bo'lmagan lug'at deb ataladigan lug'atda moddiylashadi. (3) Tilshunos olimlar tomonidan realiyalar quyida ko'rsatilgan turlarga bo'lingan :

1. Geografik (jismoniy geografiya, inson faoliyati bilan bog'liq geografik obyektlar, endemik turlar)
2. Etnografik (kundalik hayot, din, ish, san'at va madaniyat, o'lchovlar va pul, etnik xarakteristikalar)
3. Siyosat va jamiyat (ma'muriy bo'linmalar, organlar va funksiyalar, siyosiy va ijtimoiy hayot, harbiy realiya)

Tarjima qilish jarayonida xorijiy tilda berilgan realiyaga mos ekvivalentning yo'qligi va ma'lum bir hududgagina tegishli bo'lgan o'ziga hos realialarni o'z ona tilisiga o'girish tarjimonlar uchun bir qancha muammolar keltirib chiqaradi. Milliy o'ziga xoslikni tushunmasdan, uni boshqa bir ma'no anglatuvchi so'z bilan tarjima qilsa, asarning milliy koloritiga hamda realiya ifodalagan ma'noni o'ziga xosligiga ta'sir qilishi mumkin. Realialarni tarjima qilishning turli strategiyalari mavjud. Shuningdek, Isroillik olim Gideon Turi ham tarjimada quyidagi yechimlarni taklif etgan:

1. **Adekvatlik** (asl nusxaga yaqinlik) ;
2. **Maqbullik** (so'zni maqsadli madaniyatga to'liq moslashtirish) ;

Ko'p holatlarda tilshunos olimlar realialarni tarjima qilishda quyidagi tamoyillarga tayanishadi:

1. Transkripsiya: (ya'ni nusxa ko'chirish)
2. Transliteratsiya: (asl so'zning boshqa alifboda yozilishi)
- 3 Tarjima orqali yangi so'z – neologizm xosil qilish: (arabcha mu'adhdhin dan muazzin)
4. So'zma-so'z (kalka) tarjima qilish: (boshqa til lug'aviy birligida ona tili vositalari asosida nusxa ko'chirish ya'ni so'zma so'z tarjima qilish natijasida yuzaga kelgan so'z atama yoki birikma. Kalka o'zga tildagi ma'noni ifodalay oladigan unsurlar asosida ona tilkidagi yangi lug'aviy birlik hosil qilishdir.) (3)
5. Manba tilidan boshqa, lekin o'zaro bog'liq so'zdan foydalanish, uni asl so'z sifatida o'tkazish: (italyancha kapuchino so'zi ko'pincha ingliz tiliga latte deb tarjima qilinadi, bu italyancha "sut"degan ma'noni anglatadi)
6. So'zni umumiy yoki xalqaro so'z bilan almashtirish: (Beaujolais uchun qizil sharob)
7. Realiani izohlab bayon qilish: (ya'ni realiyani matn ichida qoldirib, uni kontekst ichida izohini keltirib berish)

XULOSA

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ldiki, realiya milliy-madaniy muhit belgilari hisoblanar ekan. Ular ko'p hollarda madaniy munosabatlarni yoritib beradi va ma'lum bir hududga tegishli tushunchalarni o'zida mujassamlashtiradi. Realialarni tarjima qilishning bir necha xil usullari sanab o'tildi. Ularni tarjima qilish jarayonida til bilishdan tashqari madaniy belgilar



haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish ham talab etiladi. Ya'ni lingvistik kompetensiyaga ahamiyat berilishi zarur.

References:

1. Vlahov, S. and Florin, S. "Neperovodimoe v perevode. Realii", in Bruno Osimo. "Manuale del Traduttore, Seconda Edizione". Hoepli, 2004, p. 63
2. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. М.: Русский язык, 1983.
3. Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. М.: Издательство Московского университета, 1978. – 172 с.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000.